MADANIY KODLAR TIZIMIDA URF-ODAT, RASM-RUSUM, AN'ANA VA MAROSIMLAR NOMLARINING O'RNI

Ma'rifat Kasimova,
Andijon davlat chet tillari instituti Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasi dotsenti vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Etnik guruhning madaniy qiyofasi uning an'ana va urf-odatlari, axloqiy qarashlarida namoyon bo'ladi. Madaniyat ijtimoiy tajribani, texnologik ko'nikmalarni va xulq-atvor stereotiplarini avlodlarga uzatish mexanizmi sifatida namoyon bo'lar ekan, bu jarayonning eng mukammal institutsional shakli va lingvomadaniy kodi urf-odat, an'ana va marosimlarda o'z in'ikosini topadi.

Kalit so'zlar: marosim, lingvomadaniy kod, taraqqiyot, til va madaniyat, etnolingvistika, milliy-madaniy xususiyat.

Annotation: The cultural profile of an ethnic group is manifested in its traditions, customs, and moral views. As culture serves as a mechanism for transmitting social experience, technological skills, and behavioral stereotypes to future generations, the most perfect institutional form and linguocultural code of this process finds its reflection in customs, traditions, and rituals.

Keywords: ritual, linguocultural code, development, language and culture, ethnolinguistics, national-cultural characteristic.

Аннотация: Культурный облик этнической группы проявляется в ее традициях, обычаях и нравственных взглядах. Поскольку культура выступает в качестве механизма передачи социального опыта, технологических навыков и поведенческих стереотипов последующим поколениям, наиболее совершенная институциональная форма и лингвокультурный код этого процесса находят свое отражение в обычаях, традициях и обрядах.

Ключевые слова: обряд, лингвокультурный код, развитие, язык и культура, этнолингвистика, национально-культурная особенность.

Kirish. Etnik guruhning madaniy qiyofasi uning an'ana va urf-odatlari, axloqiy qarashlarida namoyon bo'ladi. Madaniyat ijtimoiy tajribani, texnologik ko'nikmalarni va xulq-atvor stereotiplarini avlodlarga uzatish mexanizmi sifatida namoyon bo'lar ekan, bu jarayonning eng mukammal institutsional shakli va lingvomadaniy kodi urf-odat, an'ana va marosimlarda o'z in'ikosini topadi. Professor G.V.Drach ta'kidlagan madaniyat mohiyatini belgilovchi uchta asosiy soha – obyekt, subyekt va institutsional munosabatlar[1] urf-odat va marosimlarning lingvomadaniy tabiatida quyidagicha namoyon bo'ladi:

Birinchidan, marosimlar madaniyatning dinamik va «jonli obyektlari»dir. Matnda tilga olingan «individual madaniy obyektlardan maishiy foydalanish darajasida qolmasdan, hodisadan mohiyatga o'tish» tamoyili marosimga oid harakatlarda yaqqol ko'rinadi. Marosim davomida qo'llaniladigan har bir moddiy ashyo yoki harakat o'z maishiy qiymatidan yuqorilab, yuksak semantik ramzga aylanadi. Bu ramzlar esa tilda maxsus lingvokulturemalar orqali muhrlanadi.

Ikkinchidan, urf-odat va marosimlar tili madaniyat subyektlarining mentaliteti va axloqiy ichki qonuniyatlarini tashuvchi asosiy vositadir. Urf-odatlar doirasida shakllangan duolar, olqishlar, qarg'ishlar, yig'ilar va alyorlar lisoniy shaxsning ichki dunyosini, uning haqiqat, yaxshilik va go'zallik haqidagi ijtimoiy-estetik ideallarini namoyish etadi. Tildagi bunday tayyor nutqiy stereotip-vaziyatlar jamiyat a'zolari uchun majburiy xulq-atvor namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, marosimlar axborotni avloddan-avlodga uzatishning institutsional usulidir. Marosimlarning lingvistik tabiati shundaki, undagi matnlar, masalan, nikoh

[1] Культурология: Учебное пособие / Под ред. проф. Г.В.Драча. – Москва: Альфа-М, 2003. (– 432 с.) – 102-109.

yoki dafn rituallari, mavsumiy marosim qo‘shiqlari qat’iy performativ xususiyatga ega. Ya’ni, marosimda aytilgan so‘zlar yangi ijtimoiy voqelikni yaratishi mumkin. Binobarin, urf-odat va marosimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish olam manzarasining madaniy ma’nosini til qatlamlari orqali qayta tiklashga, hodisadan mohiyatga, ya’ni odatiy rasm-rusumdan milliy kognitiv-mental kodlarga o‘tish imkonini beradi.

V.V.Krasnixning yuqorida qayd etilgan *stereotip-tasvir* va *stereotip-vaziyat* nazariyasiga oid qarashlari urf-odat va marosimga oid til birliklarida ideal darajada sintezlashadi.

O‘zbek tili milliy an’ana va urf-odatlari, moddiy va ma’naviy madaniyati leksikasini etnografik planda tadqiq etish va tizimlashtirishda N.Mirzayevning hissasi katta bo‘ldi. Olim dastlab “O‘zbek tilining etnografik leksikasi (Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalari materiallari asosida)” nomzodlik dissertatsiyasi[2]ni himoya qilgan bo‘lsa, keyinroq “O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati”[3]ni yaratdi.

Mazkur izohli lug‘at Qashqadaryo va Surxondaryo o‘zbek shevalari materiallari asosida tuzilgan. Unga 1300 dan ortiq so‘z va birikmalar kiritilgan. To‘y marosimlari, milliy urf va an’analarga oid bo‘lgan so‘zlar lug‘atning asosini tashkil etadi. Bundan tashqari, bola tarbiyasi, milliy sport o‘yinlari, xalqning yashash tarzi va shart-sharoitlari, dafn va boshqa marosimlar bilan bog‘lik so‘zlar ham kiritilgan.

Ushbu tadqiqotlar ma’lum hudud doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, sohaga doir bir qator yangi tadqiqotlar uchun asos bo‘la oldi Shu tariqa, o‘zbek mentaliteti va madaniyatini o‘zida mujassam etgan o‘ziga xos fenomen sifatida urf-odat, marosim va

[2] Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси (Қашқадарё вилояти ўзбек шевалари материаллари асосида): Филол. фанл. номз. ...дисс. – Тошкент, 1971.
[3] Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. – 119 б.

bayramlarning ijtimoiy-ma’naviy jihatlari keng qamrovda o‘rganilgan[4]. Shu bilan birga, Mustaqillik yillarida qadriyatlarni qayta tiklash, milliy o‘zlikni anglash jarayonlarida bu sohaga qiziqish yanada kuchaydi va ularning lisoniy jihatlarini tadqiq etish borasida ham qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Sh.Nurullayeva, M.Qahhorova, N.Sh.Qurbanazarova, S.Abduqahhorovlarning tadqiqot ishlarida urf-odat va marosimlarga oid til birliklarining lingvistik xususiyatlari turli rakurslarda o‘rganilgan[5].

“O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati”da berilgan **urf-odat, marosim va udumlar**ga oid quyidagi so‘z va birikmalar berilgan: *alaslash, arafa, arpasoldi, barkash keldi, betochar, beshik soldi, go‘shanga (chimildiq), darveshona, zakot, zardevor, isqot, isqot berish, it irillatar, yil oshi, yirtish, yo‘qlov, kampir o‘ldi, mavlud, joy yig‘di, jomabo‘ron, kengash oshi, idish qaytdi, kelin tushdi, kelin chaqirdi, kelin salom, kelin osh yemaydi, kinna soldi, kichik chilla, katta chilla, kokil qo‘yish, kokil to‘y, kelin chaqirdi, kuyov chaqirdi, ko‘rmana, maslahat oshi, ma’raka, mahr, mehmon oshi, mushkulkushod, non sindirish (fotiha to‘yi), non tishlatdi, oshihalol, oqlik berish,*

[4] Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 74 б.; Қахарова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 22 б.; Қосимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Филол. фанл. б-ча фалс. д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2018; Адилова Г.А. Қорақалпоғистон қозоқлари этнографизмларининг лингвомаданий таҳлили: Филол. фанл. б-ча фалс. д-ри (PhD) дисс. – Нукус, 2018; Журабоев А. Ўзбек тилидаги тўй маросимлари билан боғлиқ атамалар (Андижон шевалари материаллари асосида): Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1971; Ҳусайнова З. Ўзбек тилида тўй маросимлари атамаларининг ономасиологик тадқиқи (Бухоро шевалари материаллари асосида): Филол. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент, 1984; Исмоилова О.О. Ўзбек тўй маросим фольклорида “Келин салом” жанри: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Ҳайитова Ф. Никоҳ тўйи қўшиқларининг лисоний талқини: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Нуриллаева Ш.М. Туркистон қарлуқ тип шеваларида тўй маросими номлари. Фил. фанлари номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 2001; Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори: Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Қорабоев У. Ўзбек халқ байрамлари. – Тошкент: Шарқ, 2002. – В. 240 б.; Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 186 б.; Сатторов М. Ўзбек удумлари. – Тошкент: Фан, 1993.

[5] Нуруллаева Ш. Туркистон қарлуқ тип шеваларида тўй маросим номлари (2001), М.Қаҳҳорова М. Ўзбек тили этнографизмларининг систем тадқиқи (2009), Qurbanazarova N.Sh. Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi (2021), Abduqahhorov S. Olamning lisoniy manzarasida milliy urf-odatlarning aks etishi (2023).

sep yoydi, soch siypatar, chillaguzaron, etak bog‘latdi, etakka soldi, qozon qurdi, qora osh va boshqalar.

Ularning ayrimlarini izohi bilan keltiramiz.

Alaslash qushnoch yoki folbin tomonidan bemorni «davolash» usullaridan biri. Bu odatga ko‘ra yog‘ga botirilgan eski latta olovda yoqilib, bemorning boshi ustida aylantirilgan.

Arafa Ramazon va Qurbon oylarining oxirgi kunlari. Arafa Arabistondagi tog‘ning nomidir. Arab taqvimi bo‘yicha Zulhijja oyining to‘qqizinchi kunida Arabistonga kelgan hojilar Arafot tog‘ida jam bo‘lganlar, tog‘ga chiqib namoz o‘qiganlar. Diniy bayramlar marosimi bo‘lgan katta va kichik hayit (iyd) kunlari boshlanishidan oldingi kun *arafa,* shundan kelib chiqqan. Hozirgi kunda arafa yangi ma’no kasb etgan. Tantanali kunlardan oldingi kunni arafa deyish odat bo‘lib qolgan.

Arpasoldi kelin va kuyovga serfarzand bo‘lib, o‘zidan ko‘payib yurishi istagini ifoda etish maqsadida nikoh kechasi kuyovning to‘ni etagiga arpa solish udumi.

Barkash keldi (*tovoq keldi, lali keldi*) nikoh va sunnat to‘ylariga ayollar tomonidan olib kelinadigan sovg‘a (tovoq).

Betochar (yuzochar, yuzochdi) kelin tushirib kelingach, bir kundan so‘ng kelinning oldiga kelgan onasi ishtirokida kelinning yuzini ochish marosimi. Kelinning yuzini yopib turgan oq mato (kelin hamisha yosh boladek beg‘am, beg‘ubor bo‘lsin degan ma’noda) yosh bola tomonidan olinadi.

Beshiksoldi (gavorabannon). Chaqaloqni beshikka solish marosimi. Bola tug‘ilgach uni 20 yoki 40 kundan so‘ng beshikka bog‘laganlar. Beshikka bog‘lash marosimi kuni turli taomlar tayyorlangan, shirinliklar keltirilgan. Bo‘g‘irsoq pishirilib, mahalla xonadonlariga shirinliklar bilan ulashib chiqilgan.

Go‘shanga (chimildiq) nikoh to‘yining birinchi kechasi kuyov bilan kelinning boshqalardan holi o‘tirishi va tunashi uchun uy burchagiga tortilgan oq chodir, chimildiq.

Darvishona (darbishona) mahalla xonadonlaridan yig‘ilgan mablag‘ hisobidan shu mahalla a’zolariga tayyorlangan taom. Darveshona navro‘z arafasida, ob-havo qurg‘oqchil kelganda, yuqumli kasalliklar tarqalgan yillarda tashkil qilingan.

Zakot shariat hukmi bo‘yicha puldor, moldor musulmonning o‘ziga qarashli mol va pulining qirqdan bir ulushi miqdorida ro‘za vaqtida beva-bechora va kambag‘allarga beradigan xayr-saxovati. O‘tmishda har bir xo‘jalikdan eshon haqi, sartarosh haqi, ro‘za haqi sifatida mablag‘ olingan. Ro‘za oyida ramazon aytuvchilar ham har bir xo‘jalikdan ro‘za zakotini so‘rab olganlar.

Zardevor uy devorining yuqori qismiga osib qo‘yish uchun turli rangdagi iplar bilan bezak berib tikilgan mato.

Isqot marhumning o‘z o‘g‘li yoki qarindosh-urug‘iga qolgan mol-dunyosi, puli, dafn marosimiga qilingan sarf-xarajat.

Isqot berish marhumning xotirasi uchun dafn marosimiga kelgan kishilarga pul, kichik bo‘lakdagi mato, non, shirinlik ulashib chiqish.

It irillatar nikoh kechasi kuyovni kelin turgan xonaga boshlab kirishda ikki ayolning eshikning ikki tomonida it bo‘lib, “irr-irr” deb turib, kuyovning yo‘lini to‘sishi, kuyovdan pul yoki biror boshqa sovg‘a olgach, irillashdan to‘xtashi, unga kirishga ruxsat berishi.

Yil oshi. Marhum xotirasi uchun osh berib o‘tkaziladigan marosim.

Yirtish marhumni ko‘mish marosimida qatnashgan kishilarga beriladigan bir bo‘lak mato, oq ro‘molcha, oqlik, dastro‘mol. Bu odat marhumni xonadonidan chiqarish oldidan yoki marhumni dafn qilishda qabristonda ijro etilgan.

Yo‘qlov I oilada farzand tug‘ilganda, chaqaloqni yoki baror munosabat bilan yaqin qarindoshi, yoru birodarini yo‘qlab sovg‘a olib borish.

Yo‘qlov II azada marhumning sifatlarini birma-bir bayon etib, ovoz chiqarib yig‘lash. Yo‘qlov ayollar tomonidan bo‘lgan.

Kampir o‘ldi nikoh marosimida kuyovni kelin kirgan xonaga olib kirishadi, eshikning oldida bir ayol o‘zini o‘lganga solib uzala tushib yotib oladi. “O‘lgan” kampirga kuyov tomonidan “xun” (pul) berilgach, u o‘rnidan turadi va kuyovni kelin oldiga o‘tishga ruxsat beradi.

Mavlud Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarimizning tug‘ilgan kuni va uning sharafiga beriladigan ziyofat; shunday ziyofatda payg‘ambarimizning tarjimayi holi berilgan “Mavludi sharif” kitobining o‘qilishi.

Muayyan xalqning lingvomadaniy merosini, urf-odat va an’analarini o‘zida mujassam etgan etnografik leksika milliy dunyoqarash va tafakkur tizimini o‘rganishda eng asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur etnografik lug‘atda berilgan o‘nlab so‘z va birikmalar o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan ijtimoiy hayoti, diniy-mifologik tasavvurlari va qadriyatlar tizimini kodlashtirgan murakkab madaniy kodlar yig‘indisidir. Bu etnografizmlar konseptual maydonning uzoq periferiya qatlamini tashkil etib, milliy mentalitetning olamni baholash va anglashdagi o‘ziga xos lingvomadaniy modellarini voqelantiradi.

Lingvomadaniy tahlil jarayonida ushbu til birliklarini madaniy kodlar tizimiga ko‘ra bir nechta yirik guruhlarga ajratish lozim. Birinchidan, o‘zbek xalqining islomgacha bo‘lgan qadimgi animistik, shamanlik va totemistik qarashlari tilda biosomatik va mifologik madaniy kodlar sifatida muhrlangan. Masalan, qushnoch yoki folbinlar tomonidan bemorning boshi uzra olovli latta aylantirish orqali ijro etiladigan “*alaslash”* va “*kinna soldi”* marosimlari olovning poklaguvchi va yovuz kuchlardan himoya qiluvchi xususiyatiga bo‘lgan asriy ishonchni ramziylashtiradi. Xuddi

shuningdek, nikoh marosimidagi "*it irillatar"* udumida ayollarning ramziy ma'noda it ovozini chiqarib kuyovning yo'lini to'sishi va sovg'a (pul) talab qilishi ostonani qo'riqlovchi ilohiy kuchlar (totemlar) haqidagi qadimgi tasavvurlarga borib taqaladi. Eshik oldida bir ayolning o'zini o'lganga solib yotishi va kuyovdan "xun" olgandan keyingina turishini ifodalovchi *"kampir o'ldi"* odati esa yangi xonadon ostonasidan xatlash va yangi hayotga qadam qo'yish muayyan ramziy sinovlar va ritual to'siqlar bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi teatrlashtirilgan madaniy koddir.

Ikkinchidan, xalqning ijtimoiy turmush tarzi va yer bilan bog'liqligi tilda agrar va unumdorlik madaniy kodlarini yuzaga keltirgan. Nikoh kechasi kuyovning to'ni etagiga arpa solishni anglatuvchi *"arpasoldi"* udumida don va baraka tushunchalari uyg'unlashib, serfarzandlik va rizqning butunligi ramzi (fitonimik kod) sifatida keladi.

Kelin tushgandan so'ng ijro etiladigan *"betochar" (yuzochar)* marosimida kelinning yuzini yopib turgan oq matoning yosh bola tomonidan ochilishi esa poklik, g'amsizlik va beg'uborlik kodlarini ifodalaydi. Chaqaloqni beshikka bog'lash bilan bog'liq *"beshiksoldi" (gavorabannon)* marosimida mahallaga bo'g'irsoq va shirinliklar ulashilishi, yangi oila qurilishida uy burchagiga oq chimildiq – *"go'shanga"* tortilishi inson hayotining eng muhim biologik va ijtimoiy davrlari tilda qat'iy ramziylashtirilganligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, o'zbek etnosiga xos bo'lgan jamoaviylik va mehr-oqibat qadriyatlari aksiologik va ijtimoiy-jamoaviy madaniy kodlar sifatida namoyon bo'ladi. Mahalla ahlidan mablag' yig'ib, tabiat hodisalari yoki yuqumli kasalliklar paytida el uchun taom pishirishni ifodalovchi *"darveshona"*, oilaviy marosimlar oldidan o'tkaziladigan *"maslahat oshi"* yoki *"kengash oshi"* kabi etnografizmlar mahalla institutining ijtimoiy jipslashtiruvchi kuchini va jamoaviy himoya mexanizmini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, to‘ylarga ayollar tomonidan olib kiriladigan sovg‘a – *“barkash keldi»*, chaqaloq yoki kelinni ko‘rishga borganda beriladigan pul – *“ko‘rmana”* hamda *“idish qaytdi”* kabi odatlar o‘zaro ijtimoiy majburiyat, rituallashuv va mehr-oqibat konseptlarini boyituvchi madaniy belgilardir.

To‘rtinchidan, xalqning islom dini bilan singishib ketgan dunyoqarashi va o‘lim fenomeniga munosabati diniy-ritual madaniy kodlarda o‘z aksini topgan. Shariat hukmiga ko‘ra beriladigan *“zakot”* va payg‘ambarimiz sharafiga o‘tkaziladigan *“mavlud”* ziyofatlari jamiyatning diniy qadriyatlar tizimi bilan sug‘orilganligini anglatadi. Hayit oldi kunini anglatuvchi *“arafa”* etnografizmining vaqt o‘tishi bilan har qanday tantanali kundan oldingi kun ma’nosida qo‘llanila boshlashi konseptning lingvomadaniy metaforalashuvini va vaqt o‘lchovi kodiga aylanganini isbotlaydi. Marhumning xotirasi va u dunyodagi maqomi bilan bog‘liq *“isqot berish”*, *“yil oshi”*, ayollar tomonidan ovoz chiqarib yig‘lashni ifodalovchi *“yo‘qlov”* hamda qabristonda tarqatiladigan oq mato – *“yirtish”* marosimlari foniy dunyoning o‘tkinchiligi va o‘lim konseptual maydonining diniy-ritual xususiyatlarini ochadi.

Umuman olganda, milliy etnografizmlarning lingvomadaniy va konseptual tahlili o‘zbek xalqining ijtimoiy tarixi, dini, mifologik tafakkuri va urf-odatlari konsept strukturasini shakllantiruvchi bosh omillar ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu birliklar til sohiblarining verbal muloqotida madaniy kodlar vazifasini bajarib, dunyoning betakror milliy-lisoniy manzarasini hamda milliy mentalitetning o‘ziga xosligini to‘liq ta’minlab beradi.

O‘zbek milliy lisoniy ongida “to‘y” leksemasining madaniy konnotatsiyasi juda keng va rang-barangdir. G‘arb madaniyatida «to‘y» shunchaki nikoh yoki oilaviy tantana bo‘lsa, o‘zbek mentalitetida inson hayotining oliy maqsadi, ijtimoiy burch ko‘rinishi va ommaviy mehmonnavozlik marosimidir. To‘y so‘zi matnda quvonch, orzu-havas, elning duosini olish kabi kuchli madaniy-estetik ma’nolarni chaqiradi.

Tadqiqotchi N.Sh.Qurbanazarova ta’kidaganidek, “To‘y o‘zbek tilida faqatgina ijobiy ma’noda qo‘llaniladigan leksema bo‘lib, uning barcha ko‘rinishlari, xususan, *“tug‘ilish to‘yi”, “beshik to‘yi”, “chilla to‘yi”, “sunnat to‘yi”, “muchal to‘yi”, “nikoh to‘yi”, “payg‘ambar to‘y”, “hoji to‘y”, “uy to‘yi”, “mashina to‘yi”* kabilar xursandchilik bilan elga osh berib, o‘yin-kulgi, to‘kin-sochinlik bilan nishonlanadi”[6].

To‘y 1. etn. Uylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va boshqa munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm-tomoshalar bilan o‘tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi.

2. etn. Qudalar o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq, kuyov tomondan qiz tomonga beriladigan pul, sarpo, masalliq va sh. k. majmui. – *Mulla Abdishukur, ertaga ojizamizga to‘y keladi, marhamat qiling, durustmi?* Oybek, Tanlangan asarlar.

3. etn. Shu narsalar yuborilishi munosabati bilan kuyov xonadonida, kelishi munosabati bilan qiz xonadonida o‘tkaziladigan marosim.

4 Biror voqea-hodisaga bag‘ishlab ziyofat va o‘yin-kulgilar bilan o‘tkaziladigan tantanalar. *Hovli to‘yi. Hosil to‘yi* (O‘TIL, 4-jild, 229-b.)

Izohlardagi 1-ma’no so‘zning lug‘aviy, bosh ma’nosi, 2- va 3-ma’nolar metonimiya va ma’no torayish usullari orqali shakllangan bo‘lib, nikoh to‘yining bir qismi sifatidagi marosimni ifodalaydi. 4-ma’noda esa ma’no kengayishi orqali “to‘y” leksemasiga oid “xursandchilik”, “tantana”, “marosim” kabi semalar aktuallashishi asosida hosil bo‘lgan konnotativ ma’noni anglatadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “to‘y” so‘ziga berilgan to‘rtta lug‘aviy ma’no qatlami lingvomadaniy jihatdan madaniy kodlarning tilda voqelanishi bilan bevosita bog‘liq. Lug‘atdagi 1-ma’no (uylanish, xatna qilish va b. munosabatlar bilan o‘tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi) so‘zning birlamchi denotativ qatlami bo‘lsa, 2- va 3-ma’nolar (qudalar o‘rtasida

[6] Qurbanazarova N.Sh. Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fanl. b-cha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2021. – 54 b.

kuyov tomondan yuboriladigan pul, sarpo, masalliq majmui va shu munosabat bilan o‘tkaziladigan rituallar) metonimiya va ma’no torayish usullari orqali shakllangan bo‘lib, nikoh to‘yining marosimlashtirilgan moddiy va lisoniy kodlarini ifodalaydi. Lug‘atdagi 4-ma’no esa (*hovli to‘yi, hosil to‘yi*) ma’no kengayishi asosida “xursandchilik”, “tantana”, “ommaviy marosim” kabi semalarning aktuallashuvi orqali yuzaga kelgan bo‘lib, so‘zning konseptual madaniy transformatsiyasini ko‘rsatadi.

“To‘y” leksemasi o‘zbek milliy lisoniy ongida oddiy maishiy tushuncha doirasidan chiqib, mentalitetning eng yirik va ko‘p qatlamli lingvomadaniy konseptlaridan birini shakllantiradi. Bu so‘zning semantik maydoni juda keng bo‘lib, unda ham umumtilga xos lug‘aviy ma’nolar (denotativ semalar), ham kontekstual va milliy-madaniy ma’nolar (konnotativ va pragmatik semalar) zanjiri mavjud.

“To‘y” leksemasining denotativ ma’nosi asosiy va umumtil darajasidagi yaqqol tushuniladigan birlamchi ma’no qatlamidir. Unda quyidagi semalar mavjud:

- ✓ *xursandchilik/tantana* semasi: har qanday to‘y shodlik, xursandchilik va bayram kayfiyati bilan bog‘liq voqelikdir.
- ✓ *marosim/ritual* semasi: inson hayotidagi muhim bosqich yoki voqeani nishonlash bilan bog‘liq an’anaviy harakatlar majmui (*nikoh to‘yi, sunnat to‘yi, beshik to‘yi, muchal to‘yi*).
- ✓ *ommaviylik/jamoaviylik* semasi: o‘zbek to‘yi hech qachon tor doirada o‘tmaydi; unda qarindosh-urug‘, mahalla-ko‘y, el-yurt ishtiroki odatiy hisoblanadi.
- ✓ *mehmonnavozlik/ziyofat* semasi: to‘yga kelgan mehmonlarni kutib olish, o‘yin-kulgi va ommaviy jamoaga turli taomlar, asosan, osh milliy taomini tortish ritualini anglatadi.

“To‘y” leksemasining madaniy konnotativ semalari, ya’ni o‘zbek milliy lisoniy ongida “to‘y” so‘ziga yuklangan va lingvomadaniyatshunoslik uchun eng muhim bo‘lgan yashirin ma’no qatlamlari quyidagilar:

✓ *hayotning oliy maqsadi/orzu-havas* semasi: o‘zbek mentalitetida insonning yashashdan asosiy maqsadlaridan biri farzand voyaga yetkazib, to‘y qilishdir. Bu so‘z umumtilda “insonning baxti” tushunchasi sinonimiga aylangan.

✓ *ijtimoiy burch* semasi: to‘y oilaning jamiyat (mahalla, qarindoshlar) oldidagi ijtimoiy maqomini ko‘rsatish, elning nazaridan o‘tish va elning duosini olish vositasi hisoblanadi.

✓ *birdamlik/jipslik* semasi: to‘y tarqoq qarindoshlarni umumlashtiruvchi, gina-kuduratlarni unutuvchi va mahallaning o‘zaro birdamlik an’analarini harakatga keltiruvchi ijtimoiy makon sifatida konnotatsiyalanadi.

Shuningdek, o‘zbek milliy lisoniy olam manzarasida “to‘y” leksemasi kontekstga qarab turli pragmatik ma’nolar ifodalay oladi:

✓ *milliy o‘zlik/etnografik kod* semasi: to‘y uloq-ko‘pkari, kurash, baxshilarning kuylashi kabi milliy qadriyatlar harakatlanadigan qadimiy va muqaddas makondir. Bu yerda “to‘y” so‘zida an’ana semasi bo‘rtib turadi.

✓ *maishiy muammo/ortiqcha dabdaba* semasi: ayrim kontekstlarda to‘yning maishiy-hajviy jihatlari ochiladi. So‘z tarkibiga isrofgarchilik, maqtanish, o‘zini ko‘rsatish, qarzga botish kabi salbiy pragmatik semalar kontekstual tarzda yuklanadi.

✓ *ijtimoiy stereotip model* semasi: to‘y dinamik voqelik. Undagi jamoaviy maslahatlashish, bosh-qosh bo‘lish, taklifnoma tarqatish, karnay-surnay chalish, to‘yona bilan kelish, mehmonlarni tabaqalab o‘tqizish, to‘y marosimi bilan bog‘liq udumlar orqali davrning ijtimoiy-maishiy tizimi va mansublik asosida qatlamlanishi (qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, hamkasblar, quda-andalar, kuyovjo‘ralar, kelin-dugonalar guruhlari) aks etadi.

Shu tariqa, “to‘y” leksemasi o‘zbek tilining milliy lisoniy manzarasida denotativ ma’nosidan ko‘ra, kuchli madaniy va pragmatik konnotatsiyalari bilan ajralib turadi.

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan “to‘y” leksemasining denotativ, konnotativ va pragmatik ma’nolar zanjirini o‘zbek etnosiga xos bo‘lgan quyidagi madaniy kodlar tizimi asosida tahlil qilish lozim:

To‘y fenomeni o‘zbek jamiyatida tarqoq qarindosh-urug‘larni umumlashtiruvchi, gina-kuduratlarni unutuvchi va mahallaning o‘zaro jipslik an’analarini harakatga keltiruvchi kuchli ijtimoiy makon, **ijtimoiy marosim kodi** vazifasini bajaradi. So‘z tarkibidagi *ommaviylik/jamoaviylik* va *mehmonnavozlik/ziyofat* denotativ semalari o‘zbek to‘yining hech qachon tor doirada o‘tmasligini, unda butun mahalla-ko‘y va el-yurt ishtiroki odatiy me’yor ekanligini kodlashtiradi. To‘yga kelgan ommaviy jamoaga milliy taom – osh tortish ritual, ya’ni *taom predmet kodi* jamoaviy birdamlik va ijtimoiy rishtalarni mustahkamlovchi ramziy belgidir.

Shuningdek, bu yerda ijtimoiy stereotip ham yaqqol namoyon bo‘ladi: to‘y marosimi bilan bog‘liq jamoaviy maslahatlashish, bosh-qosh bo‘lish, taklifnoma tarqatish, karnay-surnay chalish, to‘yona bilan kelish hamda mehmonlarni mavqei va qarindoshlik darajasiga ko‘ra tabaqalab o‘tqizish udumlari orqali davrning ijtimoiy-maishiy tizimi va iyerarxik tuzilishi tilda aks etadi.

O‘zbek milliy lisoniy ongida to‘y oilaning jamiyat oldidagi ijtimoiy maqomini ko‘rsatish, elning nazaridan o‘tish va eng muhimi, «elning duosini olish» vositasi bo‘lib, tilda **ijtimoiy burch va aksiologik kod** sifatida konnotatsiyalanadi. Milliy mentalitetda insonning bu yorug‘ dunyoda yashashdan asosiy maqsadlaridan biri farzand o‘stirib, uning to‘yini ko‘rish, orzu-havas qilishdir. Shu sababli “to‘y” leksemasi umumtil doirasida transformatsiyaga uchrab, pragmatik darajada “insonning baxti” tushunchasining lingvomadaniy sinonimiga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

1. Qurbanazarova N.Sh. Surxondaryo vohasi to‘y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fanl. b-cha fals. d-ri (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2021. – 54 b.
2. Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: ИТДГК “Гнозис”, 2002. (– 284 с.) – С. 233.
3. Тагильцева Ю.Р. Смысловые компоненты, выражающие культурные коды, в конфликтогенных поликодовых текстах // Политическая лингвистика. 2023. № 1 (97). – С. 77-88.
4. Маджидова Р.У. Репрезентация антропоморфного культурного кода в антропоцентрических пословицах // Xorijiy filologiya, №2, 2020. – B. 52-56.
5. Ефименко Т.Н. Взаимодействие лингвокультурных кодов в процессе межкультурной коммуникации // Известия вузов. Серия “Гуманитарные науки” 3 (3), – С. 188-191.
6. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: Учеб. пособие. – Москва: Флинта, Наука, 2010. – С. 123.
7. Киреева И.И. Структурно-семантические и прагматические характеристики английского лингвокультурного кода “Flora”: Автореф. ... канд. филол. наук. – Самара, 2008.
8. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского //Метафизика. – М., 2016. № 4. – С. 78-97.
9. Mamatov E. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – B. 31.